

Mardonova Bahora

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Usarova Laylo Ibragimovna

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
kafedراس dotsenti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola ham nazmda, ham nasrda mashhur bo'lgan G'ofur G'ulom lirikasi haqida. Adib she'rlaridagi ruhiyat, hissiyot timsollari haqida gap ketadi. G'ofur G'ulom o'z ijodi bilan o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan zabardast shoirlarimizdan biri hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *she'riyat, G'ofur G'ulom, hissiyot, vaqt, ruh, yetimlik, qiyinchilik, xalq taqdiri, nafislik.*

O'zbek she'riyati yirik namoyondalaridan biri G'afur G'ulomdir. U nafaqat nazmda balki nasrda ham yuksak cho'qqilarga erishgan adiblardan biri hisoblanadi. G'afur G'ulon o'zbek adabiyotining zabardast vakili, vaqtga haykal qo'ygan buyuk shoirdir. Uning she'riyatida hissiyot yetakchi o'rinni egallaydi. Bu adibning ijodi to'laligicha xalqimiz hayotini ochib berishga qaratilgan. O'ziga xos jo'shqinlik, kamtarinlik, nafislik va haqgo'ylik kabi tuyg'ular ifori shoir lirikasida sezilib turadi. Adibning hayot yo'liga to'xtaladigan bo'lsak yoshligida ko'plab qiyinchiliklarga uchraganligini ko'rishimiz mumkin. O'zining yoshlik kunlari haqida she'rlar ham yozgan.

"Yetimlik nimadir

Bizlardan so'ra,

O'ninchi yillarning

Sargardonligi

Isitma aralash

Qo'rqinch tush kabi

Xayol ko'zgusidan

O'chmaydi sira.

G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkentda dehqon oilasida tug'ildi. Bo'lajak shoir to'qqiz yoshida kirar-kirmas og'ir kulfatga duchor bo'ladi. 1912-yilda otasi G'afur Oripov vafot etdi. Adib o'n yoshligida onasidan ham ajraldi"[1;177]. Yuqoridagi she'ri bilan adib bolaligida yetim qolganligini, qiyinchiliklarga uchraganligini qalamga oladi. Otadan ajralgan oila boquvchisini yo'qotadi. Bu ham yetmaganday bir yil ichida onasidan ham ajraladi. Bu shoir uchun og'ir kulfat edi. Oila ma'suliyati yosh shoirning zimmasiga tushadi. Gafur G'ulom shunday kunlarini xotirlaydi va quyidagicha tasvirlaydi:"kirmagan eshigim, qilmagan xizmatim, tutunmagan ishim qolmadi"[2;66]. Bu satrlar orqali shoir hayotning naqadar qiyin o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Shoirning qiyinchiliklari qanchalik ko'p bo'lsa ham, adabiyotga bo'lgan qiziqishi so'nmaydi. G'afur G'ulom "Vaqt", "Sog'inish", "Kuzatish" kabi she'rlari orqali shoirning qanchalik qalami o'tkir ekanligini ko'rishimiz mumkin. "G'afur G'ulom urush davrida "po'lat nayza kabi o'tkir, bukilmas asarlar yozib, benazr she'rlar saldatini shaylantirdi. G'afur G'ulomning harbiy lirikasi adabiyotimizning bebaho yutug'idir"[1;190]. G'afur G'ulom she'rlari do'stlik, vaqt, urush, tinchlik, tenglik, vatan va boshqa mavzular haqida yozilgan. Adib she'rlari hayoq haqiqatini kuylaydi.

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la,

Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Yuqoridagi parcha "Vaqt" she'ridan olingan. G'afur G'ulom adabiyotimizda bu she'ri orqali "vaqtga haykal qo'ygan adib" deya ta'riflanadi. Bu she'ri bilan umrdan to'g'ri foydalanishga, vaqtimizni bekorga o'tkazmaslikka undaydi. Umrimizning har lahzasining mazmumli o'tkazishga, hayotda nom qoldirishga chaqiradi. Umrni qisqa ekanligini tasvirlaydi. G'afur G'ulom oddiy she'r orqali inson ongiga keskin ta'sir o'tkazishini keltirilgan namunalarda ko'rishimiz mumkin. Fikrimni yakunlar ekanman, o'zbek she'riyatining yorqin

namoyondasi Gʻafur Gʻulom nazmida hayot va uning mazmuni obdan sodda holatda tushunilgan. U sheʼrlari orqali avlodlarga oʻgit beradi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.Mirzayev "XX asr oʻzbek adabiyoti" Toshkent-2005
- 2.Yoqubov H. Gʻafur Gʻulom T. Oʻzadabiyotnashr. 1959.
3. www.ziyonet.uz sayti